

**TRANSPORT VOSITALARI BILAN BOG'LIQ BO'LGAN
FAVQULODDA VAZIYATLARNING AVARIYALARI VA
HALOKATLARINI OLDINI OLİSH VA ULARNING OQIBATLARINI
BARTARAF ETISH.**

Madaminova Shahloxon Sharifjon qizi

Andijon davlat texnika instituti
Bakalavr 3-bosqich talabasi, O'zbekiston
Email: shahlomadaminova84@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasiagi Transport vositalari bilan bog'liq bo'lgan favqulodda vaziyatlarning avariyalari va halokatlarini oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish va bo'lib o'tgan avariyalarning asosiy sabablari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Aviahalokatlar, **temiryo'l transportidagi halokatlar, avtomobil transportining halokati va avariyalari, metropoliten bekatlaridagi va tunellaridagi halokatlar, magistral quvurlardagi avariylar, SUV transportidagi halokatlar.**

Kirish: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 -yil 27-oktyabrdagi "Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida"gi 455-sonli qaroriga asosan transport avariyalari va halokatlariga quyidagilar kiradi:


-ekipaj a'zolari va yo'lovchilarning o'limiga, havo kemalarining to'liq parchalanishiga yoki qattiq shikastlanishiga hamda qidiruv va avariya-qidiruv ishlarini talab qiladigan **aviahalokatlar;**

-yong'inga, portlashga, harakatlanuvchi tarkibning buzilishiga sabab bo'lgan va temiryo'l xodimlarining, halokat hududidagi temiryo'l platformalarida, vokzallar binolarida va shahar imoratlarida bo'lgan odamlar o'limiga, shuningdek tashilayotgan kuchli ta'sir ko'rsatuvchi zaharli modda (KTKZM)lar bilan halokat joyiga tutash hududning zaharlanishiga olib kelgan **temiryo'l transportidagi halokatlar va avariylar (ag'darilishlar);**

-portlashlarga, yong‘inlarga, transport vositalarining parchalanishiga, tashilayotgan KTKZMlarning zararli xossalari namoyon bo‘lishiga va odamlar o‘limi (jarohatlanishi, zaharlanishi)ga sabab bo‘ladigan **avtomobil transportining halokati va avariyalari**, shu jumladan, **yo‘l-transport hodisalari**;

-gaz, neft va neft mahsulotlarining avariya holatida otilib chiqishiga, ochiq neft va gaz favvoralarining yonib ketishiga sabab bo‘ladigan **magistral quvurlardagi avariylar**.

Aviatsiyadagi avariya va halokatlarning sodir bo‘lishiga samolyotdagi alohida konstruksiyalarning buzilishi, dvigatelning ishdan chiqishi, boshqaruv tizimlarining, elektr ta’minoti, aloqa ishini buzilishi, yoqilg‘ining yetishmasligi, ekipaj va yo‘lovchilarining hayotini ta’minlashdagi uzilishlar jiddiy oqibatlarga sabab bo‘ladi.



1-rasm. Reyslarning to‘qnashuv joyi.

Temir yo‘l transportidagi halokatlar va avariylar (ag‘darilishlar).

Temir yo‘l transportida sodir bo‘layotgan avariylar va falokatlarning asosiy sabablari yo‘lning, harakatlanuvchi tarkibning nosozligi, signalizatsiya, markazlashtirish va blokirovkalash uskunalarining nosozliklari, dispatcherlar xatolari, mashinistlarning e’tiborsizligi va beparvoligidir.

Pechlar, isitish qozonlari, lopkomotivlar va boshqalardan chiqadigan har qanday uchqundan hosil bo‘ladigan yonish avariylaga sababchi bo‘lishi mumkin. Harakat tarkiblarining to‘qnashib ketishlari dispatcherlar va mashinistlarning e’tibordizligi va beparvoligi oqibatida yuz beradi. Kamdan-kam hollarda temir yo‘l transportidagi avariyalarning sababi dovul va quyun, zilzila, uyumlar, tosh qulashi kabi tabiiy ofatlar

bilan bog‘liq bo‘ladi. Qalin tuman,kuchli yomg‘irlar ko‘rinish masofasini kamaytiradi hamda inson faktori bilan qo‘silib, halokatlarga olib keladi.

Temir yo‘l transportidagi avariyalarning eng katta salbiy oqibatlari xavfli(kimyoviy yoki radiatsiyaviy moddalar joylashgan sig‘imlar) yuklarni, portlash xavfi bor buyumlar,yoqilg‘ilar tashishda yuzaga keladi. Bu avariylar hududning katta qismini zararlanishi va zaharlashi, ekotizimga sezilarli zarar yetkazishi xavfi bilan bog‘liq. Ularni bartaraf etish juda qiyin va ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng oqibatlari namoyon bo‘ladi.

Temir yo‘llardagi halokatlarni oldini olish uchun faqatgina harakatdagi tarkibni emas, balki yordamchi qurilmalar, shu jumladan yong‘inga qarshi asbob-anjomlar va himoya vositalarini ham rejali va puxta tekshirib borish kerak. Ayniqsa teplovozlar va elektrovozlarda alohida ehtiyyotkorlikka rioya qilish kerak.

Avtomobil transportidagi halokatlar va avariylar.

Avtomobil transportidagi avariyalarning 75 foizi haydovchilarning yo‘l harakati qoidalarini buzganligi sababli sodir bo‘ladi. Huquqbazarliklarning eng xavfli turlari tezlikni oshirish, yo‘l belgilariga e’tibor bermaslik, qarama-qarshi yo‘nalishdagi harakat yo‘liga chiqib ketish va mast holatda avtomobil boshqarish bo‘lib qolmoqda.

Ko‘pincha yo‘llarning sifatsiz qurilganligi, vaqtida ta’mirlanmasligi, qor va muslardan tozalab turilmasligi(sirpanchiq yo‘llarda avariylar ko‘p sodir bo‘ladi) va transport vositalarining nosozligi (birinchi o‘rinda - tormozlar, ikkinchi o‘rinda – rul boshqaruvi, uchinchi o‘rinda – g‘ildiraklar va shinalar) avariyalarga olib keladi. Avtohalokatlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, jarohat olganlarning 80%i birinchi uch soat ichida ko‘p qon yo‘qotish tufayli nobud bo‘ladi.

Metropoliten bekatlaridagi va tunnellaridagi halokatlar, avariylar, yong‘inlar.

Metropoliten bekatlarida va tunnellarida ham xabar berish, blokirovka va avtomatika tizimlari yaxshi ishlamasligi, vagonlarning eskirganligi va boshqa sabalar tufayli **halokatlar, avariylar va yong‘inlar sodir bo‘lib turadi.**

2021-yil 18-mart kuni Toshkent metrosining “Olmazor” va “Bekat-1” bekatlari o‘rtasidagi tunnelda temir yo‘ldagi begona predmetni ko‘rib qolgan 5-poyezd

mashinisti poyezdni to‘xtatadi. Shunda to‘xtab turgan poyezdga uning orqasida harakatlanayotgan 9- poyezd kelib uriladi. Yo‘lovchilar evakuatsiya qilinadi. Jabrlanganlar yo‘q. Bu holat - xabar berish, blokirovka va avtomatika tizimlari yaxshi ishlamagidan dalolat beradi.



Toshkent metrosida poyezdlar to‘qnashuvidan keyingi holat (2021-yil 18-mart)

2022-yil 25-yanvar kuni blekaut natijasida elektr ta’minotisiz qolgan Toshkent metrosidan 415 kishi evakuatsiya qilingan.

Magistral quvurlardagi avariylar.

Har yili dunyoda taxminan 1,5 million kubometr neft va neft mahsulotlari suvgaga tushib, qushlar, baliqlar va ba’zan odamlarni nobud qiladi. Ularni tashishda quvurlardagi avariylar neft va gaz qazib oluvchi mamlakatlarning ekologiyasi va iqtisodiyotiga halokatli zarba beradi.

Quvurlarning ishdan chiqishining yana bir sababi korroziyadir. Neft va gaz kabi faol moddalar bilan aloqada bo‘lgan po‘lat tabiiy ravishda zanglaydi. Quvur transportidagi barcha “incidentlar” haqidagi xabarlarning 15-20 foizini korroziya jarayonlari bilan bog‘liq avariylar tashkil qiladi.

O‘zbekistonda ham gaz quvurlari bilan bog‘liq avariylar (inson omili) mustaqillikning dastlabki yillari Tojikiston orqali o‘tuvchi liniyada sodir bo‘lib turgan.

Hozirgi vaqtida ba’zi mamlakatlarda quvurlarga “Smart Pig” nazorat-o‘lchov qurilmalari o‘rnatalmoqda. Ushbu qurilmalar gaz quvuriga joylashtiriladi va u orqali harakatlanadi, quvur deformatsiyasi va metallning shikastlanishi kabi muhim

parametrlarni o‘lchaydi. Biroq, barcha gaz quvuri ham bunday qurilmadan foydalanish uchun mos diametrغا ega emas. Bundan tashqari muntazam diagnostika qisman demontaj qilib turishni ham talab qiladi. Demontaj vaqtida quvur liniyasining ishlamay turishi esa yana sarf-harajatlarning oshishiga olib keladi.



“Smart Pig” nazorat-o‘lchov qurilmasi.

Suv transportidagi halokatlar.

Suv transportida avarilarning asosiy sabablari quyidagilardir:

- sayoz joyga kemaning o‘tirib qolishi;
- boshqa kema yoki to‘sinq bilan to‘qnashuv (riflar, suv osti qoyalari, neft platformalari, aysberglar);
- yon‘inlar va portlashlar;
- halokatga uchragan kemadan yoqilg‘i-moylash materiallari va kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalarning suv yuzasiga sizib chiqishi;
- odamlarning kema bortidan tashqarisiga tushib ketishi.

Xulosa. Transport avariyalari va halokatlari asosan inson omili tufayli sodir bo‘ladi. Ularni oldini olish va salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun tizimda mehnat qiladigan, undan foydalanidan har bir fuqaro transport sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan talablarga qat’iy rioya qilishi, o‘zining majburiyatlarini bajarishga vijdonan yondoshishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 -yil 27- oktyabrdagi “Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida”gi 455-soni qarori

2. Nurxo'jaev A.K., Yunusov M.Yu., Xabibullaev I.X. Favqulodda vaziyatlar va muhofaza tadbirlari. Toshkent: «Universitet». 2001.
2. Farmonov A.E., Igamberdiev A.R. va boshq. Hayot faoliyati xavfsizligi. Toshkent: «Universitet». 2006